

XURSHID DO'STMUHAMMADNING QISSALARIDA SEVGI MOTIVI

Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna

Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xurshid Do'stmuhammadning "Hijronim mingdir" qissasi tahlilga tortilgan. Qissa insonlarni sevishga, pok ruhoniy tuyg'ularni asrab-avaylashga bir yigit va qizning o'zaro yozishma xatlari shaklida yozilgan va qahramonlarning bir-birlariga mehribonlik qilishi, qayg'urishi, cheksiz-chegarasiz qashshoqlik girdobida yashayotgan insonda shunday nozik tuyg'ular sevgi tufayli unib-o'sayotganligini kuzatish mumkin.

Kalit so'zlar: qissa, sevgi, nozik tuyg'ular, maktub, original, badiiy to'qima, nasr.

Аннотация: в этой статье к анализу был привлечен рассказ Хуршида Дост Мухаммеда "хиджра-моя тысяча". Повесть написана в форме переписки юноши и девушки о любви к людям, о сохранении чистых священнических чувств, и можно проследить, как доброта героев друг к другу, их скорбь, такие нежные чувства прорастают благодаря любви в человеке, живущем в водовороте бесконечной нищеты.

Ключевые слова: рассказ, любовь, нежные чувства, письмо, оригинал, художественная фактура, проза.

Annotation: In this article, The Story of Khurshid Dostmuhammad "my Hijran is a thousand" was drawn to the analysis. The story is written in the form of mutual correspondence letters of a guy and a girl to love people, to cherish pure priest feelings, and it is possible to observe that such tender feelings sprout out of love in a person who lives in a whirlwind of endless poverty, caring for each other by heroes.

Key words: short story, Love, tender feelings, letter, original, artistic texture, prose.

Xurshid Do'stmuhammadning "Hijronim mingdir" qissasi yanada original uslubga ega. Asar hayotda bir-birini sevib-ardoqlagan, ruhan yaqin yigit va qizning yozishma maktublari asosiga qurilgan. Adabiyotshunos olim M.Qo'chqorova "Maktublar – qalb ko'zgusi" maqolasida jahon badiiy nasridagi maktubning o'ri haqida shunday e'tirof etadi: "Dunyoga mashhur nemis yozuvchisi I.V.Gyotening "Yosh Verterning iztiroblari" asari bejiz boshdan-oyoq maktub janri asosiga qurilmagan. Xuddi shuningdek, avstriyalik adib Stefan Sveygning "Bir ayol maktubi" qissasi Frants Kafkaning "Otamga xat" essesi ma'lum badiiy maqsad, badiiy shakl imkoniyatlariga ko'ra aynan maktub asosiga qurilgan. ...Shuning uchun ba'zan

yozuvchi epik asarlar kompozitsiyasini maktub asosiga qursa, ba'zida esa asar tarkibida qahramonlarning bir-biriga yozishma maktublarini ilova qiladi". [1;76]

Xuddi shuningdek, yozuvchi X.Do'stmuhammad jahon nasri shu kabi o'zbek adabiyotida ham ko'p bora sinovdan o'tgan maktub janridan foydalangan holda "Hijronim mingdir" qissasida insonlarni sevishga, pok ruhoniy tuyg'ularni asrab-avaylashga bir yigit va qizning o'zaro yozishma xatlari shaklida asar bitadi. Qissadagi maktublar, undagi hissiy ifoda beixtiyor rus yozuvchisi M.F.Dostoevskiyning "Kambag'allar"[2;54] romani uslubini yodga soladi. Ammo, adib mazkur asarda istifoda etgan maktublar zamirida nafaqat, ikki insonning bir-biriga dil izhori, balki Rossiyadagi ijtimoiy qashshoqlik, kambag'allik muammosini juda chiroyli shaklda kuchli tanqid ostiga olgan edi. Hadsiz-hisobsiz yetishmovchiliklar, uysizlik, nonsizlik, og'ir sharoitda yashayotgan insonlar o'zlarining eng nozik insoniy tuyg'ularini asrab qolishadi.

Mutolaa jarayonida qahramonlarning bir-birlariga mehribonlik qilishi, qayg'urishi, cheksiz-chegarasiz qashshoqlik girdobida yashayotgan insonda shunday nozik tuyg'ular sevgi tufayli unib-o'sayotganligini kuzatib, ularga achinish tuyg'usi bilan bir qatorda ikki oshiqning bir-biriga ko'rsatayotgan mehribonligi, nazokati o'quvchi qalbiga ezgu nur olib kiradi. Bu motivlar dramatik yoxlit syujet liniyasiga ega voqealarda emas, maktublarda aks etadi. Dostoyevskiyning mazkur romanidagi uslub qaysidir ma'noda X.Do'stmuhammadning "Hijronim mingdur" qissasida zuhur topgan. Qissadagi oshiq yigitning qizga, ayni paytda poklik va go'zallik timsoli deb ta'riflanayotgan qizning yigitga yozgan maktublaridagi ehtirosli satrlar aslida, qahramon nutqiga xos ichki monologning bir shakli. Ko'rinib turibdiki, X.Do'stmuhammad "So'roq", "Oromkursi", "Kuza", "Hay Gulish..." kabi qissalarida qo'llagan ichki monologning yana bir yangi shaklini istifoda etadi. "Hijronim mingdir"[3;870] qissasi boshdan-oyoq ichki monolog asosiga qurilgan, ajib bir kompozitsiyaga ega asar. Unga maishiy voqealar, dramatik keskinlik, tragik pafos, turfa obrazlar tizimi, obrazlar va voqealarni ulovchi kompozitsion butunlik singari badiiy unsurlar yot. Unda yolg'iz ikki kishining maktubi, maktubda ifodalangan ehtirosli sevgi satrlari kompozitsion butunlikni tashkil etgan. Qissada ikkitagina qahramon, ismi, oilasi noma'lum bo'lgan ikki inson bosh qahramon.

Ularni bosh qahramon deb atash ham noto'g'ri bo'lar. Chunki, asarda qahramonlar emas, ularning maktublarda bitgan fikrlari yetakchilik qiladi. Shu maktublar orqali har bir obrazning qiyofasini, ruhiy olamini anglab boramiz. Hayotning eng asosiy mohiyati insonning insonga, insonning hayotga muhabbatidir. Zero, bu qissaning muvaffaqiyati ham ana shu hayot haqiqatini qahramonlarning betakror dunyosi tahlili orqali ochib berilganida deb o'ylaymiz. Asar haqida adabiyotshunos U.Normatov shunday fikr bildirgan: "Xurshid Do'stmuhammad qissasidagi oshiq va ma'shuqalar bir-biriga faqat ezgu tuyg'ularini izhor etadi, sevgi

muloqotlari jarayonida ular xayoli, vujudi, boringki, butun hayoti bamisoli nurli, musaffo tuyg'ular qanotida sayr etadi; bu nafis, musaffo tuyg'ular ularni insoniy kamolot sari yetaklaydi. Ular oshiqona muloqotlar asnosida o'zgacha odamga aylanib borayotganligini, hayoti boshqacha ma'no kasb etayotganini his etib turadilar". [3;531] Ko'rinib turibdiki, olim asar haqida asosli fikr yuritgan. Darhaqiqat, qissada sevgi insonni tozartiruvchi, poklovchi buyuk kuch-qudrat sifatida talqin etilgan. Ammo biz asarga xos yana bir xususiyatni ta'kidlagimiz keladi. Bu qahramonlar nutqining o'ziga xosligiga diqqatimizni qaratsak. Ismi noma'lum qahramonlar maktub yozishar ekan, ichki monologga asoslangan satrlar orqali adib monologning monolog-xayol shaklidan mahorat bilan foydalanadi: "Juda to'g'ri yozgansiz, jonim, boshqalar bizni to'g'ri tushunmasligini fojiga aylantirishning hojati yo'q. ehtimol, hamma birdek tushunaveradigan tuyg'u bo'lganida, u Sizu Bizning ko'ngillarimiz mulkiga, qalblarimizni tutashtiruvchi ko'priikka aylanmas edimi? [4;76]

- Shunday emasmi?

- "Men ham shunday o'ydaman".

- Nima dedingiz,

- "Hech nima".

- Ayta qoling!

- "O'zi bitta edi"

- O'zi bitta bo'lgach, gapi ham bitta bo'ladi-da!"

Rassom yigit xayolan ma'shuqasi bilan suhbatlashadi, xayoliy muloqotda ma'shuqa nomidan o'zi javob berar ekan, qizning javoblari juda qisqa, lo'nda va ular ko'chirma gap shaklida berilgan. Maktublarda oshiqalar bir-biriga xayoliy suhbatlarini, tushlarini, shaxsiy hayotlaridagi ba'zi ruhiyat bilan bog'liq hikoyalarini so'zlab berishadi. Bu esa qahramonlarning ichki ruhiy olamini yanada yorqinroq tasavvur etishimizga yordam beradi. Qissada ayol ruhiyatini chuqur talqin etuvchi bir o'rin bor, uni nazardan chetda qoldirish mumkin emas. Bu ma'shuqa maktubida tilga olingan amakisi va kelinoyisi haqidagi hikoya. Maktubda bu hikoya shunday yakunlanadi: "Kennoyim dam kulib, dam o'yga tolib ancha gapirdilar:

- Qizlik kezlarim bir dunyo orzularim bor edi. Kelin bo'lib tushdimu, hayotim o'zgardi. Xayollarim, orzularim o'zgardi, hatto tovushim bo'g'ilib qolganga o'xshaydi... Hech kimga aytmaydiz-a? Meni bu yerda hech kim xafa qilib qo'ymaydi, oyijon, amakingiz yaxshi odam ekanlar. Faqat o'zim ko'nika olmayapman. Ich-ichimdan shunaqa ezilamanki! Ko'ngil qo'ya olmaslik... Sizchi, siz faqat sevib turmush quring, xo'p?... Men... berkinib yig'lasam, sal yengil tortaman... Kelin bo'lib tushgan oiladagilarni, shu yerdagi turmush tarzini sevib-ardoqlab yashashim kerak, deb o'ylardim. Mehrim, e'tiborim, ko'nglimdagi bor yaxshi niyatlarimni shu yerga baxshida qilaman, degan o'ydan bo'lak orzum yo'q edi. Eng muhimi - odamlarning ko'ngliga qarash, mehrlil bo'lish kerak deb hisoblaganman, lekin... xayol, orzu-niyat

boshqayu turmush, hayot boshqa ekan. Mehr-muhabbatdan ko'ra oyoq-qo'ning chaqqonligi, epcilligi, toliqmasligi zarurroq ekan, oila uchun...". [5;75] Qissada ma'shuqa qiz va kelinoyisi o'rtasida kechgan dialog suhbat matni orqali ayol kishining ruhiy dunyosi bilan yuzlashamiz. Er-xotinlik tashqaridan qaralganda, risoladagidek ko'rinishi mumkin, lekin ko'ngildagi pinhoniylar his-tuyg'ular, orzu-niyatlar, mehr-muhabbat shu bir kichik dialogda aks etgan.

Ayolning oila oldidagi burch taqozosiga ko'ra eng go'zal orzularidan, hayoliy muhabbat haqidagi jozib his-tuyg'ulardan, o'z orzusidagi baxtdan voz kechishga majbur ekanligi uning iztirobga to'la ko'ngil izhori orqali ta'sirchan yoritilgan. Aksari hollarda ayollar oila boshliqlari, turmush o'rtoqlari ra'yiga ko'ra hayot kechiradilar. Oilaning tartib qoidalariga so'zsiz bosh egadilar. Ularning ko'ngil mayli, orzulari, his-tuyg'ulari bilan ko'pincha, hech kim qiziqmaydi. Ana shunday munosabat tufayli ayol dilidagini tiliga chiqara olmaydi. Milliy mentalitar xususiyat – ayolning o'z tuyg'ularini ochiq-oydin ifoda qilishi uyat, nomus hisoblangani sababli aksari hollarda ayollar erkaklar mayliga, ota-ona, aka-yu tog'alarning ular qismatini hal qilishlariga ilojisiz ko'nadi; ular tomonidan yaratilgan taqdirga bosh egadi. Ilojisizlik, achchiq qismatdan bir umr azobla to'lg'anib yashash, o'z istagicha emas, majburan birovning ayoli bo'lib yashashdek holatni kelinoyi "xayollarim, orzularim o'zgardi, hatto ovozim ham, bo'g'ilib qoldi", deya ifoda qiladi. "Hatto ovoznig o'zgarib qolganligi" esa qalb kechinmalari, his-tuyg'ulari, ixtiyori bo'g'ilgan ayol ruhiyatini anglatadi. U qaynsinglisini ham shunday qismat kutayotganligini ochiq-oydin ayta olmasa ham, o'z taqdiriga, o'ziga munosabat orqali qizga nisbatan achinish tuyg'ularini sezdirmoqda. Yozuvchi asarda ayol ruhiyatini shu tarzda bor murakkabligi bilan ta'sirchan manzaralashtirishga erishgan.

Xulosa qilib aytganda, Chinakam ijod onlarida yozuvchining manfaatidan yuksakroq manfaat bo'lmaydi, uni hatto jamiyat manfaatlari ham qiziqitirmaydi (vaholangki, o'sha jarayon mahsuli bo'lmish asar pirovardida ayni shu jamiyat koriga yaraydi). Chunki jamiyat deganda odatda ayni shu kunning voqealari, jarayonlari nazarda tutiladi., yozuvchilik esa bunga qattiq bog'lanib qolmasligi kerak. Yozuvchilik bundan yuqori. Ijodkor uchta zamonda yashaydi. Jamiyat asosan bugun bilan tirik. Darhaqiqat, yozuvchi yaratilayotgan qahramon ichki his-tuyg'ularini o'zida zohir qilishga erishsagina uni o'quvchiga ishonarli va ta'sirchan tarzda yetkaza oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кўчқорова М. Мактублар – қалб кўзгуси. // Жаҳон адабиёти, 2009. 11-сон. – Б. 161.
 2. Норматов У. Қиссадан ҳиссалар. // Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 49.
 3. Дўстмуҳаммад Х. Ҳижроним мингдир. // Ёшлик, 1996. 5-сон. – Б. 14.
- Қуроноф Д., Мамажонов. З., ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 244.

4. Дўстмуҳаммад Х. Ҳижроим мингдир. // Ёшлик, 1996. 5-сон. – Б. 15.
 5. Дўстмуҳаммад Х. Чаёнгул. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 2011. – Б. 157.
 6. Arxiv.uz
 7. ziyo.uz
- Rustamov Ilhom Tursunovich. (2022). LINGUISTIC AND CULTURAL ASPECTS OF LITERARY TRANSLATION AND TRANSLATION SKILLS. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 10, 168–173. Retrieved from <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/158>
- Rustamov, I. (2022). Илхом TEACHING ENGLISH AS A FOREIGN LANGUAGE. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).
- Rustamov, I. (2022). Ilhom THE INTERLEVEL ANALYSIS OF VERBAL HUMOUR RESOURCES IN THE ENGLISH LANGUAGE: THE INTERLEVEL ANALYSIS OF VERBAL HUMOUR RESOURCES IN THE ENGLISH LANGUAGE. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).
- Rustamov, I. (2022). ilhom МИЛЛИЙ ЛАТИФАЛАРНИНГ СТЕРОТИПИК ТАЛҚИНИ: МИЛЛИЙ ЛАТИФАЛАРНИНГ СТЕРОТИПИК ТАЛҚИНИ. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).
- Rustamov Ilhom Tursunovich. (2022). ON THE CONCEPTUAL METAPHOR: MAN IS UP, WOMAN IS DOWN. *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies*, 1(2), 28–31. Retrieved from <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/326>
- Tursunovich, R. I. (2022, November). THE SIGNIFICANCE OF PRAGMATIC APPROPRIATENESS IN ESL CULTURE. In *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies* (Vol. 1, No. 2, pp. 157-160).
- Rustamov, I. T., & Nargiza, Y. (2022). Study of Alisher Navoi Works in Europe. *Gospodarka i Innowacje*, 24, 1021-1023.
- Rustamov, I. (2022). Ingliz tilida ta'na-dashnom tushunchalarni bildiruvchi leksik birliklarning semantik maydoni. *Scienceweb academic papers collection*.
- Rustamov, I. (2020). Ethnic stereotypes in anecdotes. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(3), 622-623. Retrieved from <https://www.scopus.com/results/authorNamesList.uri?st1=rustamov&st2=ilhom&origin=searchauthorlookup>
- Tursunovich, R. I. (2022). Teaching a Foreign Language and Developing Language Competence. *Web of Scholars: Multidimensional Research Journal*, 1(8), 8-11.
- Ataboyev Isroiljon Mirza o'g'li. (2022). RESPONDING TO A SPEECH REPROACH. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 10, 161–167. Retrieved from <https://journalzone.org/index.php/bjgesd/article/view/157>
- Ataboyev, I. (2022). fazilatturgunova05@gmail.com SEMANTIK MAYDONNI TASHKIL ETUVCHI UNSURLAR ORTASIDAGI ALOQA TURLARI: SEMANTIK MAYDONNI TASHKIL ETUVCHI UNSURLAR ORTASIDAGI ALOQA TURLARI. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(4).
- Turg'unova, F. R. (2022). THE TITLE OF THE ARTICLE IN ENGLISH AS THE SUBJECT OF RESEARCH. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 10, 174-177.